YEVROPA ITTIFOQINING TASHQI VA XAVFSIZLIK SIYOSATIDA FRANSIYA TAHLIL MARKAZLARINING O‘RNI: O‘ZBEKISTON BILAN ANALITIK HAMKORLIK ISTIQBOLLARI

Sunnatova Madina G'ofurjon qizi
email: sunnatovamadinka@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Fransiyaning yetakchi tahlil markazlari hamda ularning Yevropa Ittifoqi Tashqi va xavfsizlik siyosatini shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda fransuz analitik institutlarining qaror qabul qilish jarayonlariga ta'siri va ularning Markaziy Osiyo, xususan O‘zbekiston bo‘yicha ekspertiza darajasidagi institutsional bo‘shliqlar yoritilgan. Maqola yakunida ikki davlat tahlil markazlari o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri analitik muloqotni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Fransiya, Yevropa Ittifoqi, tahlil markazlari, Markaziy Osiyo, O‘zbekiston, tashqi siyosiy ekspertiza.

1. KIRISH

Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida tashqi siyosiy qarorlarni qabul qilish faqat rasmiy diplomatik idoralar doirasida kechmaydi. Bunda "tahlil markazlari" (Think Tanks) faoliyati ham juda muhim o‘rin tutadi. Yevropa Ittifoqi (YI) darajasidagi tashqi va xavfsizlik strategiyasini shakllantirishda Fransiya tahlil markazlari yetakchi rol o‘ynaydi. Fransiyaning BMT Xavfsizlik Kengashidagi doimiy a'zoligi hamda YIdagi strategik yetakchiligi sharoitida mamlakat ekspert jamiyati umumyevropa kun tartibini belgilab beruvchi asosiy omil vazifasini o‘taydi.

So‘nggi yillarda Toshkent va Parij o‘rtasidagi siyosiy hamda iqtisodiy muloqot yuqori darajaga ko‘tarildi. Biroq, shunga qaramay, fransuz tahliliy doiralarida Markaziy Osiyo va O‘zbekiston bo‘yicha chuqur hamda mustaqil ekspertizaning yetarli emasligi kuzatiladi. Fransiyaning yirik tahlil markazlari kun tartibida Markaziy Osiyo masalalari ko‘pincha ikkinchi darajali bo‘lib qolmoqda yoki faqat geosiyosiy raqobat va xomashyo manbayi snuqtai nazaridan talqin qilinmoqda. Ushbu tadqiqotning maqsadi — Fransiya aql markazlarining YI tashqi siyosatidagi ta'sir vositalari va ular bilan O‘zbekiston o‘rtasidagi tahliliy hamkorlik istiqbollarini atroflicha o‘rganishdan iborat.

2. ASOSIY QISM

Fransiya tahlil markazlarining YI tashqi siyosatidagi o‘rni haqida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, Fransiyaning Xalqaro munosabatlar instituti (IFRI — Institut français des relations internationales), Xalqaro va strategik munosabatlar instituti (IRIS — Institut de relations internationales et stratégiques) hamda Strategik tadqiqotlar jamg‘armasi (FRS — Fondation pour la recherche stratégique) kabi yetakchi "aql markazlari" Yevropa strategik avtonomiyasi hamda Yevropa Siyosiy Hamjamiyati (EPC) kabi konseptual g‘oyalarga ilmiy-nazariy poydevor yaratib berdi. Ushbu institutlar ekspertlari Yevrokomissiya va Yevropa Parlamenti uchun doimiy tahliliy ma'ruzalar tayyorlab, YI tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilaydi.

Markaziy Osiyo bo‘yicha ekspertizaning holati va muammolarini atriflicha tahlil qiladigan bo'lsak, Parij tahlil markazlarida Markaziy Osiyoga bo‘lgan e'tibor yirik mintaqalar (AQSh, Xitoy, Yaqin Sharq) bilan solishtirganda nisbatan past. Fransuz tahlilchilarining aksariyati mintaqadagi transformatsiyalar va

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

O‘zbekistondagi islohotlarni bevosita emas, balki uchinchi mamlakatlar manbalari va yevrosentrik qarashlar orqali baholaydi. Natijada fransuz siyosiy doiralarida mintaqa haqida ba'zan bir tomonlama yoki eskirgan tasavvurlar saqlanib qolmoqda. Analitik hamkorlikdagi institutsional bo‘shliqlar haqida so’z ketsa, Fransiya Markaziy Osiyo tadqiqotlari instituti – IFEAC kabi ixtisoslashgan tuzilmalar mavjud bo‘lishiga qaramay, ularning faoliyati asosan akademik-gumanitar soha bilan cheklangan. Siyosiy va geo-iqtisodiy masalalar bo‘yicha ikki mamlakat qaror qabul qiluvchi tuzilmalari va ekspertlari o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri hamda tizimli tahliliy muloqot platformasi yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan.

Siyosatshunoslik nuqtai nazaridan, fransuz tahlil markazlari bilan hamkorlik O‘zbekiston uchun qator imkoniyatlarni beradi. Birinchidan, Parij tahlil markazlari orqali O‘zbekistondagi islohotlar va mintaqaviy tashabbuslarni Yevropa Ittifoqi kun tartibiga obyektiv yetkazish mumkin. Ikkinchidan, Transkaspiy transport yo‘lagi (Middle Corridor) va Afg‘oniston yo‘nalishida fransuz ekspertlari bilan birgalikda xolis tahliliy hujjatlar tayyorlash imkoni beriladi. Uchinchidan, fransuz va yevropalik analitiklar orasida O‘zbekiston haqidagi xolis ekspertizaning oshishi mamlakatga investitsiya va zamonaviy texnologiyalarni jalb qilishni tezlashtiradi.

3. XULOSA VA TAVSIYALAR

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Yevropa Ittifoqining Tashqi va xavfsizlik siyosatida Fransiya tahlil markazlari strategik konseptual g‘oyalar manbai hisoblanadi. O‘zbekiston va Fransiya o‘rtasidagi hamkorlikning amaliy natijadorligini oshirish va tahliliy muloqotdagi bo‘shliqlarni bartaraf etish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

1. Institutsional hamkorlikni yo‘lga qo‘yish: O‘zbekistonning yetakchi tahlil markazlari (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti) hamda Fransiya tahlil institutlari (IFRI, IRIS) o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri anglashuv memorandumlarini imzolash va doimiy muloqotni yo‘lga qo‘yish.

2. Qo‘shma tahliliy hujjatlar chop etish: Mintaqaviy xavfsizlik, transport-logistika integratsiyasi va "yashil" energetika bo‘yicha o‘zbek va fransuz ekspertlari hammuallifligida qo‘shma hisobotlar tayyorlash va ularni Yevrokomissiya hamda Fransiya Tashqi ishlar vazirligiga taqdim etib borish.

3. Ekspertlar va tadqiqotchilar almashinuvini yo‘lga qo‘yish: Fransiyalik yetakchi analitiklarni O‘zbekistondagi jarayonlarni joyida o‘rganishlari uchun maxsus tadqiqot grantlari va stajirovka dasturlarini tashkil etish.

4. Fransuz tilidagi analitik kontentni ko‘paytirish: O‘zbekistondagi islohotlar, tashqi siyosiy va iqtisodiy imkoniyatlar haqidagi tahliliy materiallarni fransuz tiliga tarjima qilish hamda Fransiyaning ilmiy-siyosiy nashrlarida faol chop etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Thierry de Montbrial. Rapport annuel mondial sur le système économique et les stratégies (RAMSES) // Institut français des relations internationales (IFRI). – Paris: Dunod, 2026.
2. Boniface, P. Comprendre le monde: Les relations internationales expliquées à tous // Institut de relations internationales et stratégiques (IRIS). – Paris: Armand Colin, 2021.
3. Ministère de l'Europe et des Affaires étrangères. La politique étrangère de la France et ses partenaires stratégiques // Document d'orientation stratégique du MEAE. – Paris, 2023.
4. А.Ю.Чихачев, А.Чагры. Участие “Мозговых центров” в принятии внешнеполитических решений: опыт Франции. – Вестник ЗабГУ. Т.26, 2020.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

5. Т.А. Дундукова. Роль «мозговых центров» в современном мире. – Вестник Молодой учёный. Т №4 (108) февраль-2, 2016., 598 с. URL: Роль «мозговых центров» в современном мире | Статья в журнале «Молодой ученый» (moluch.ru)
6. Institut Français d'Études sur l'Asie Centrale (IFEAC). Rapports d'activité et recherches sur l'Asie centrale // Tashkent: IFEAC, 2023–2024.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.